

O‘SMIR YOSH QATLAMIDAGI BOLALARDA AGRESSIYA VA UNING SABABLARI

Arakulov Gayrat Tulkinovich -O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
o‘qituvchisi

arakulov.gayrat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davridagi bolalarda agressiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillari hususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, inqiroz, agressiya, ijtimoiy-psixologik omillar, yosh.

Ma’lumki, inson psixikasidagi eng qizg‘in va eng kutilmagan “injiliklar”ga boy davr o‘smirlik davri hisoblanadi. Bu davrning o‘ziga xos “inqirozi” xar bir yosh o‘smirda turlicha kechadi. Afsuski, ularning aksariyatida bu davrda tajovuzkorlik, agressiya va atrof-muhitga bo‘lgan nafrat kabi kechinmalar bilan o‘zini namoyon qiladi. O‘smirlik davrining o‘ziga xos “kutilmagan sovg‘a”laridan biri agressiyadir. Negaki, uning qachon va qanday holatda paydo bo‘lishi borasida umumiyl xulosa berish juda qiyin. Lekin, o‘smirlik davrida agressiyaning asosiy sabablaridan biri bu atrof-muhitdagi faktorlar hisoblanadi. Xo‘sish, agressiya o‘zi nima? Nega aynan o‘smirlik davri agressiyaning cho‘qqisi deya qaraladi.

Agressiya – hayotdagi tajovuzkor hatti-harakatlarda ma’lum bir doimiylik bilan yoki vaqtiga-vaqtiga bilan o‘zini namoyon etadigan deviant xulq atvor ko‘rinishi bo‘lib, asosiy ko‘zlangan maqsadi boshqalarga ruhiy, jismoniy ba’zi hollarda ma’naviy zarar yetkazish jarayonidir. Agressiya muammosi psixologiya va pedagogikaning qadimiy va engmuhim muammolaridan biridir. O‘smirlik davridagi agressiya nafaqat ota-onalarga alohida mas’uliyat yuklaydi, balki o‘smirlar ta’lim va tarbiya jarayonida muntazammuloqotda bo‘luvchi pedagoglarga ham alohida mas’uliyat yuklaydi. Agressiyaholatida bo‘lgan o‘smirlar bilan muloqot jarayonida pedagog kerakli to‘g‘rimuloqot yondoshuvini tanlay bilishi

kerak. Sababi, agressiya nafaqat o'smirniholat ifodasi bo'lib, balki atrofdagi o'zi qatori tengdoshlari uchun ham "namuna" vazifasini bajarishi mumkin. O'smirlardagi agressiya va uning oqibatlarida jinoyatchilikning soni oshib borishi jamiyat uchun katta xatar omilidir. Kattalarga nisbatan namoyishkorona bo'ysunishdan bosh tortish kabi xatti-harakatlar o'smirlarda agressiya belgilaridan biridir. L.M.Semenyukning so'zlariga ko'ra, tajovuz - bu odamlarning jamiyatda birgalikda yashash me'yorlari va qoidalariga zid bo'lgan, hujum nishonlariga zarar etkazadigan buzg'unchi xatti-harakatlar majmuidir. So'ngi vaqtarda o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning yangi turlari paydo bo'lib bormoqda, jumladan, ekstremistik harbiylashtirilgan guruhlarida reketlikda qatnashishlari, uyushgan jinoiy guruhlar bilan hamkorlik qilishlari, fohishalik va sutenyorlik bilan shug'ullanishlari kabilardir. Yaqin o'tmish bilan solishtirganda og'ir jinoyatlar soni oshib bormoqda, nizolar va odamlarning tajovuzkor xatti-harakatlari faktlari ko'paygan. Biz jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlarning, aholi mulkchilikning turli shakllariga nisbatan tabaqalanishining intensiv jarayonlarini guvohi bo'lmoqdamiz, bu esa guruhlararo va shaxslararo ziddiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Agressiv harakatlar ikki hil shaklda namoyon bo'ladi:

- emotsiyal ko'rinishdagi zarar keltirishga yo'naltirilgan dushmanlik agressiyasi
- biron bir ijobiy maqsadga erishish usuli hisoblangan instrumental agressiya

Psixologiya fanida quyidagi asosiy agressiya nazariyalar farqlanadi:

- Instinktlarga asoslangan nazariya, Zigmund Freyd va Konrad Lorens nomlari bilan bog'liq. Bu nazariyaga ko'ra agressiya xuddi suv ko'lmakda to'planganidek ichkarida to'planadi. Bu nazariyani isbot qilish qiyin bo'lsa ham, agressiyaga ta'sir qiladigan markaziy nerv tizimi tuzilishini e'tiboridan chetda qoldirmaslik kerak.
- Nafrat va dushmanlikning sababi frustratsiya hisoblanadi. Agressiv stimullar paydo bo'lgam mahal, asab tizimi agressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Frustratsiya to'g'ridan-to'g'ri deprivatsiyaning oqibati emas, u shaxs ehtiyojlari va

uning real muvaffaqiyatlari darjasni o'rtasidagi chuqur farq tufayli paydo bo'ladi.

-Ijtimoiy o'rganish nazariyasida esa agressiya o'zlashtirilgan xulq deb tushuniladi. Bizning shaxsiy tajribamiz, boshqalar muvaffaqiyatini kuzatishimiz hamda shunga o'xhash jarayonlarda ham agressiya ma'lum foyda keltirishini isbotlaydi. Aversiv tajriba tufayli paydo bo'lgan emotsional hayajon ham agressiyaga sabab bo'ladi. Salbiy ko'rinishdagi hayajonning natijasi ham ko'p hollarda agressiya bilan yakunlanadi, bu esa bizning shunga o'xhash vaziyatlar qanday oqibatlarga olib kelishini o'rganganligimizga bog'liq.[1, 6.18] Avvalo agressivlik va tajovuzkorlikni farqlash lozim. Tajovuz - boshqa obektga zarar yetkazuvchi muayyan harakatlar majmui, tajovuzkorlik esa tajovuz yo'naltirilgan shaxsning xatti-harakatlarini tegishli tarzda idrok etishga tayyorligini ta'minlaydi. Shaxsning tajovuzkorligi uning ijtimoiy faolligi darajasida o'ziga bo'lgan munosabatini himoya qilish usuli bo'lishi mumkin. L.I.Zaxarovning fikricha, o'smirlarning tajovuzkor xatti-harakati tengdoshlari, oilasi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan belgilanadi. Shunday qilib, tajovuzning barcha asosiy nazariy tushunchalarini ko'rib chiqib, biz ushbu hodisaning quyidagi umumlashtiruvchi ta'rif bilan qabul qilishimiz mumkin. Agressiya - barcha tirik mavjudotni haqorat qilish yoki unga zarar etkazishga qaratilgan xattiharakatlarning har qanday ko'rinishi. Bu ta'rif tajovuzning his-tuyg'u yoki motiv emas, balki xatti-harakatlar modeli ekanligini ta'kidlaydi. [2, 6.239] Agressiya ko'pincha g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lsada motiv bilan zarar etkazish yoki xafa qilish istagidir. Albatta, bu omillar tajovuzkor xatti-harakatlarga juda katta ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning mavjudligi bunday xatti-harakatlarning asosiy sharti emas. [3,6.288] O'smirlik davridagi tajovuzkorlik murakkab jarayon hisoblanib, tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari ham psixologik (motivatsion, hissiy irodaviy yoki axloqiy sohalarning buzilishi) ham ijtimoiy-psixologik omillar (o'smir yashayotgan oilada muhitning buzilishi, ajrim, shu jumladan oiladagi muntazam notinchlik va ruhiy muvozanatning darz ketishi) bo'lishi mumkin. O'smirlar va ularning ota-onalar bilan munosabatlari, aynan spirtli

ichimliklarga qaram bo‘lib qolgan oila farzandlarining tajovuzkorligi o‘rganilganda, ularda o‘rtacha adovatning normal ko‘rsatkichi va tajovuzkorlikning yuqori ko‘rsatkichiga ega ekanligi aniqlangan. Spirtli ichimliklarga qaram oilalarning bolalari ko‘proq dushmanlik va tajovuzkorlikka moyilligi yuqori bo‘ladi. Agressivlik darajasi yuqori bo‘lgan bolalar g‘azab, o‘ziga ishonchsizlik hamda beparvoligi bilan ajralib turadi. Ular bilan muloqot qilishda o‘qituvchi qat’iyat hamda vazminlik bilan munosabatda bo‘lishi lozim, u tajovuzkor o‘smirning ichki holatini mukammal tushunishini sabr-toqat bilan ko‘rsata bilishi kerak, chunki o‘smir agressiv harakatlari vaqtida u ko‘pincha o‘zini tuta olmaslikdan aziyat chekadi. Hatto boshqa bir shaxsga jismoniy yoki ma’naviy zarar keltirib, undan uzur so‘ragan taqdirda ham, unda bezovtalik va norozilik tuyg‘usini boshdan kechirish davom etadi. O‘smirlarda bu davrda ota-onada va oilaning boshqa a’zolari bilan bo‘ladigan doimiy nizolar agressiyani paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan yana bir omildir. Agressiyaga moyilligi bo‘lgan o‘smirlar bilan muloqot chog‘ida ota-onalardan ham alohida e’tibor va yondoshuv talab qilinadi. O‘smirlardagi agressiya hozirgi kunda faqatgina nizoli oilalardagi muhit maxsuli deyish qiyin, xozirgi rivojlangan axborot texnologiyalari asrida o‘smirlarning butun kundalik turmushini zamonaviy telekomunikatsiya vositalari qamrab olgan. Texnika va undagi jarayonlardan kundalik hayotda muntazamravishda foydalanish ham o‘smirdagi agressiyaning oshishiga sabab bo‘la oladi. Oddiy bir kundalik misol, xozirgi zamonaviy kompyuter o‘yinlaridagi tajovuzkor holatlar, ulardagi tunganmas va yutib bo‘lmash davomiyligini ham o‘smirlarda agressiyaning kelib chiqish asosiy sabablaridan biri bo‘la oladi. Tajovuzkor ruhdagi kompyuter o‘yinlarining ta’siri o‘smir miyasida shunchalik o‘rnashadiki, aksariyat hollarda ushbu jarayonni odatiy holat sifatida ong ostiga singdirib boradi. Borgan sari bunday odatlarni amalda qo‘llab ko‘rish, ya’ni o‘smir o‘zi yoqtirmagan shaxslarga nisbatan jangari ruhdagi harakatlarni amalyotda qo‘llash va bu orqali o‘z qasosini olish kabi hayollar paydo bo‘ladi. Eng ayanchlisi, bunday holatlar o‘smirdagi insoniylikka xos bo‘lgan mehr-shafqat,

rahmdillik kabi his-tuyg‘ularni yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi. D.Kaganning fikriga ko‘ra, o‘smirlardagi agressiyani o‘rganish jarayonida uning oqibatlarini oldini olishning eng samarali usuli - agressiyaga sabab bo‘lgan “motivatsiya” jarayonini aniqlashdir. Rus psixologi Yevgeniy Ilinning fikriga ko‘ra esa, o‘smirlardagi agressiya nafaqat psixologiya fanining davriy muammosi, balki bu muammo huquq-tartibot organlariga ham tegishli butun jamiyatning muammosidir. [4, 6.35] Sababi o‘smirlardagi agressiya yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, jamiyatdagi illatlar va jinoyatlarning o‘suvchi dinamikasini kafolatlovchi manbadir.

Xulosa qilib aytadiganda, o‘smirlik davri agressiyasining asosiy manbai bu atrof-muhit va undagi o‘smir hayotiga ta’sir qiluvchi salbiy omillaridir. Atrof muhitdagi va kundalik hayotdagi har bir element o‘smir tabiatining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Demak, biz kattalar farzandlarimizni xech qachon nazoratdan chekkada qoldirmasligimiz lozim degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Рean А.А. Агрессия и агрессивность личности. - СПб, 1995.18 б.
2. Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012.239б.
3. Змановская Э.В. Девиантология (психология девиантного поведения)- М.: Академия, 2004.-288 б.
4. Психология агрессивного поведения, Ильин Е., Питер, 2014. 35-б.
- 5.Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg ‘ulotlar mакtabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 54-56.
- 6.Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у подростков. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 106-109.

- 7.Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 81-88.
- 8.Холова, М., & Аракулов, Г. (2022). Zamonaviy bilimlarni egallashda pedagogik psixologiyaning ahamiyati. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4), 219-221.
- 9.Yuldashev, S. (2021). THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN MILITARY EDUCATION. *International Journal of World Languages*, 1(2).
- 10.Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, 5, 69-73.
- 11.Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 267-270.
- 12.Salim o'g'li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 66-72.
- 13.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
- 14.Ибайдуллаева, У. (2022). РОЛЬ СЕМЬИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ПОДРОСТКАМИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 1(7), 81-83.

- 15.Ibaydullayeva, U. (2022). OILADA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).
- 16.Устин, П., Турсунқурова, Ф., & Санаев, А. (2022). Советы психологов, как сделать школьника более ответственным в учебе. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 430-433.
- 17.Равшанов, О. (2022). Конфликты между учителем и учениками и способы их решения. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 508-511.
- 18.Axmedovich, R. O. (2022). GLOBALLASHGAN AXBOROT DAVRI VA SHAXSNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 38-44.
- 19.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 20.Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
- 21.Каршибоев, С. (2022). Yosh yetakchining rahbarlikka xos psixologik jihatlari. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 464-467.
- 22.Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirshanining-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).

- 23.Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8393>
- 24.Yo‘ldoshyev, S. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8390>
25. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7726>
- 26.Yo‘ldoshyev, S., & Otaqulova, S. . (2023). SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8473>
- 27.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O‘TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O ‘SMIRLAR KELIB CHIQISHIGA TA’SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
28. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 29.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.
- 30.Norbekova, B. (2022). O ‘roqboyeva M. Maktabgacha ta ‘limda psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion

- tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 481-483.
- 31.Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).
- 32.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.
- 33.Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.
- 34.NORBEKOVA, B. (2021). Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations.
- 35.Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНинг ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.